

# Axborot berish ilmi

Qanday qilib bolalar bilan xavf-xatarlar haqida gaplashish va ularni Internetda himoya qilish.

Ochiq va rost muloqotni bardavom etish hamda huquq va imkoniyatlarni kengaytirish bolalarni onlayn va oflayn muhitda himoya qilishning kalitidir.



Axborotni rost, aniq va yoshga mos hamda umidlantiruvchi tarzda taqdim etish bolalarga qiyin kechinmalarni yengishga va qo'rquvni kamaytirishga yordam beradi.

Bolalarning his-tuyg'ularini tan olish, ularni rag'batlantirish va diqqat bilan tinglash ularga o'zlarini sevikli deb his qilishga, qo'llab-quvvatlov va xavfsizlikni sezishga yordam beradi.

Internetda raqamli xavfsizlik haqida.

Bolalarning chidamliligi ularning Internetdagi himoyasi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Axbirit bilan yetarlicha ta'minlangan va Internetdan qanday qilib xavfsiz foydalanishni biladigan bolalar yaxshiroq himoyalangan bo'lishadi.

Internetdan foydalanish qoidalarini belgilash bolalarning Internetdagi odatlarini nazorat qilishga yordam beradi. Turli yosh xususiyatlari turli qoidalarni talab qiladi.

Bolalarga ochiq savollar berish orqali erkin gapirishga ruxsat berish ularga o'z his-tuyg'ularini ifoda etishga va qiyinchiliklar bilan yaxshiroq kurashishga yordam beradi.

Axborot bilan yaxshi ta'minlangan ota-onalar katta ehtimol bilan bolalar uchun Internetdagi xavflar va ogohlantirish belgilarini yodda tutishadi.

Bolaga g'amxo'rlikni amalga oshirayotgan shaxslar bajarishi mumkin bo'lgan narsalarga ota-ona nazoratini o'rnatish, antivirus skanerlarini yangilash va "ishonchli" maxfiylik sozlamalarini ta'minlash kabilar kiradi.

Bolalar bilan Internetda vaqt o'tkazish va birgalikda undan foydalanish ularning xavfsizligini ta'minlaydi.



## G'amxo'rlik ilmi

Baxtli, sog'lom, g'amxo'r oilalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha BMT NJQKBning tashabbusi

Qo'shimcha ma'lumot olish va havolalar uchun quyidagi veb-saytga tashrif buyuring:

Bu Fransiya va Yaponiya xalqining saxovatli yordami tufayli amalga oshirildi.

[www.unodc.org/listenfirst](http://www.unodc.org/listenfirst)



**UNODC**

United Nations Office on Drugs and Crime